

**RUSTAM ABDULLAYEVNING FORTEPIANO IJODI. “ERTAKLAR” TURKUMI VA
“KARVON” ASARINING MUSIQIY-NAZARIY TAHLILI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13315441>

Karomatova Sitorabonu

(O‘zbekiston davlat konservatoriyasi 2-bosqich talabasi.)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Rustam Abdullayevning fortepiano ijodiga tavsif, hamda o‘zbek musiqasining eng sara namunalaridan bo‘lgan “Ertaklar” turkumi haqida fikr yuritiladi. Maqolada ushbu turkum ichiga kirgan “Karvon” pyesasining musiqiy-nazariy tahlili mavjud*

Kalit so‘zlar: *kompozitor, konsert, orkesrt, polifonik turkum, sonata, variatsiya, miniatyura, ansambl, trel, tremolo, tembr, passaj, pyesa, dramaturgiya, lirizm, fantaziya, zamonaviy o‘zbek musiqasi.*

O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi raisi, turli tanlovlar g‘olibi va festivallar ijrochisi, kompozitor Rustam Abdullayev ijodida fortepiano muhim o‘rin egallaydi. Forteplano cholg‘usining o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini puxta bilgani sababli kompozitor doimiy tarzda forteplano uchun asarlar yozadi va o‘zi barcha asarlarining birinchi ijrochisi hisoblanadi.

Uzoq yillik ijod yo‘li va orttirilgan tajribalar natijasida R.Abdullayev tomonidan forteplano uchun turli xil janrlarda ko‘plab asarlar yaratilgan. Forteplano va orkestr uchun 5 ta konsert, forteplano, torli va zarbli cholg‘ular orkestri uchun “Rotalla”, forteplano va torli orkestr uchun “Elegiya”, polifonik turkumlar, sonata, variatsiya, miniatyura turkumi, “Bolalar albomi”, forteplano ansambl shular jumlasidandir. Kompozitorning asarlari forteplano ijrochilarning o‘quv-pedagogik, konsert, ko‘rik tanlovlar repertuarlariga kiritilgan. Asarlar Tojikiston, Rossiya, Qirg‘iziston, Gruziya, AQSH, Germaniya, Fransiya, Angliya, Turkiya, Shvetsiya, Tailand, Gollandiya, Koreya kabi jahonning ko‘pgina mamlakatlarida ijro etilib, ulkan muvaffaqiyat qozonmoqda. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasi san‘at arbobi, professor O.Yusupova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor A.Sharipovalar kompozitorning forteplano asarlarini hozirgi kunga qadar mohirona ijro qilib kelmoqdalar. R.Abdullayevning rafiqasi Ra‘no Abdullayeva va ularning iste‘dodli farzandlari – Xalqaro ko‘rik tanlovlar laureati Behzod Abdullayev va Elnura Mirzakamolovalar ham kompozitor asarlarini yuqori saviyada, yuksak mahorat bilan ijro etadilar.

Ijodining yorqin va o‘ziga xos serqirraligi R.Abdullayevning forteplano uchun yozgan asarlarida o‘z aksini topgan. Har bir asarining mavzusini qalb bilan shu darajada yorqin namoyon qiladiki, ijrochi va tinglovchilar butun yuragi bilan asar ichiga g‘arq bo‘lganliklarini o‘zlari ham sezmay qolishadi. Avvalo, yorqin milliylik, chuqur an‘anaviylik,

zamonaviy, musiqiy yozuv uslubi uning asarlarida yaqqol sezilib turadi. R.Abdullayev yurtimizning qadimiy musiqa san'ati, uning serjilo an'analarini o'z ruhiyatiga singdirib olgan.

R.Abdullayev zamonaviy fikrlash va san'atdagi yangi qirralarni belgilashda yangiliklardan foydalanmoqda. Bu unga faqatgina ijodkor sifatida emas, balki uning bebaholigini ta'kidlash uchun ham kerakdir.

“Ertaklar ” deb nomlangan fortepiano uchun yozilgan turkum 2008-yilda yaratilgan bo'lib, har biri qiziqarli musiqiy voqeani o'zida namoyon etuvchi 5 ta pyesadan iborat. Dasturiy nomida mujassamlangan badiiy g'oya ijrochining ijodiy fantaziyasi uchun sharoit yaratib beradi. Ushbu turkumdagi 5 ta ertak sokin, tinch, osoyishta sur'atlarda aks ettirilgan. Ertaklarda lirizm, ertakka xos so'zlovchilik insonni o'ziga jalb qiladi. Rang-barang bezaklar orqali ifodalangan chuqur vazminlik bolalikda eshitilgan g'aroyib va qiziqarli ertaklarni eslatadi.

1 - pyesa - “Ertakchining hikoyasi”da ertakni ta'sirli bayon qiluvchi oqko'ngil hikoyachining qiyofasi aks ettirilgan. Kompozitor tinglovchini erkin rivojlanuvchi vositalar orqali mayin musiqiylik, ifodaviy ta'sirlar bilan zamonaviy garmonik tuzilmalar va puxta ishlangan faktura yordamida ertaklar olamiga yetaklaydi. Ertaklarini tun og'ushida, oying yorqin yog'dusida boshlagan ertakchi tinglovchini ertaklar dunyosining sehrli o'zga olamiga olib ketadi. Ushbu pyesani R. Abdullayev qizi Mirzakamolova E.R. ga bag'ishlaydi va asar boshida ham “Qizim Elnuraxonga” degan yozuvlarni ko'rishimiz mumkin.

2 - pyesa - “Gullar raqsi” deb nomlanuvchi yoqimli, nafis ertak o'ta ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. R. Abdullayev aytishicha, ushbu asar G.X. Andersening “Idaga atalgan gullar” ertagi ta'sirida yaratilgan. Davrada turli xil gullar guldasta bo'lib yig'ilgan, kumushrang oy shu'las, jarangdor atirgullar bargi hidiga burkangan ertakli gullar bazmi ko'rinishidir. Gullar raqsining musiqasi sharq go'zallarining nafis raqsini tasvirlovchi qiyofa bilan birgalikda musiqada ularning serjiloligini nozik holda ko'rsatadi.

3 - pyesa - “Karvon”. Bepoyon qumli cho'lda sokin bo'lib yurayotgan savdogarlar aravasi va tuyalarning ertaknamo karvoni aks ettirilgan. Musiqada kvarta ohangdoshing qiqa forshlag yuqori registrda olinishi qo'ng'iroqchalar tovushiga taqlid bo'lib, ko'pgina tuyalarning tebranib ketayotgani yaqqol aks etadi. Pyesaning o'rta qismida kompozitor sayohatchilarning hayolchanligi, poyonsiz va cheksiz cho'lda ko'ringan sehrli, sirli, insonni o'yga cho'mdiradigan sarob ko'rinishini tasvirlaydi. Pyesa fransuz impressionistlari an'analaridan kelib chiqqan fortepiano cholg'usining rang-barang imkoniyatlarini ko'rsatuvchi turli registrning erkin qo'llanishiga, qiziqarli fakturalarga bo'ydir.

4 - pyesa - “Burgutlar parvozi” da kuch-quvvati qanot va ko'zlarida bo'lgan erksevar qushlar timsoli yaratilgan. Pyesa dramaturgiyasi sehrli ko'rinishda, ertaklar olamiga olib kiruvchi rang-barang, hazilomuz fantaziya orqali ifodalangan.

Asar boshida burgutlarning mag'rur va sokinligi aks etadi. So'ngra sokin holatdan osmonning yuqorisiga, g'oyat ehtirosli darajadagi parvozgacha badiiy fikr ifodalanishining

rivojlanishi asosida tashqi va ichki rivojlanish mutanosibligini ko'ramiz. Asar so'ngida esa burgutlar yana o'sha sokinligi va mag'rurligiga duch kelamiz.

5 - pyesa "Tonggi shabada" insonni shirin uyqudan, ertaknamo, sehri, qiziqarli tushlardan bahra olib uyg'onishini ko'rsatuvchi romantik tonlar bilan turkumni yakunlaydi. Tonggi nafis shabada she'riy boshlanishi yana yangi kun va yangi imkoniyatlarning go'zalligini - tonggi sof tabiatni va sof umidlarni belgilaydi. Ushbu pyesada ko'proq rangli bo'yoqqa ega tovushlar, tonggi shabada nafasi, bularning barchasini kompozitor jarangdor trel va tremolo, mayda figuratsion passajlar, rang-barang tembrlar orqali ifodalab bergan.

R.Abdullayevning "Karvon" fortepiano uchun yozilgan asari o'zining dilrabo, betakror ohanglari bilan boshqa asarlari singari o'ziga xos ahamiyatga ega. Sharq kompozitorlik maktabi, jumladan, o'zbek kompozitorlari oldida turgan eng oliyjanob maqsad – Sharq va G'arb musiqa an'analarini ijodiy uyg'unlashtirishni R.Abdullayevning ushbu asarida ko'rish mumkin, unda milliylik va an'anaviy ruh ustuvorlik qiladi.

Asar oddiy uch qismli shaklda, do minor tonalligida, to'rt hissali (4/4) o'lchovda, Moderato tempida yozilgan.

Asarda kompozitorga xos bo'lgan fortepiano ijodiyotining yo'nalishlari paydo bo'ladi. Ohang jihatdan keng ko'lamlik, lirik xalq qo'shiqlariga xos bo'lgan variatsiyali rivojlanish, o'ziga xos garmonik tili (akkordlarning taqqoslamasi), inson ichki olami, his tuyg'ularini, uning sevgi iztiroblarini teran ifodalash asarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Asarning ohangi milliy o'zbek musiqasi tiliga tayangan. Bosqichma-bosqich harakat, musiqiy bo'limlarning chegaralarida kvarta-kvinta sakramalar bilan birikishi, yuqori yetakchi tovush orqali melodik kodanslarning kelishi, usullarning sinkopalanganligi va asarning kuychanligi bundan dalolatdir. Asarda an'anaviy va o'zbekona yangicha ruh mohironalik bilan uyg'unlashtirilgan.

Melodik matoning o'sib borishi tufayli R.Abdullayevning mazkur asari ustozona mumtoz musiqaning rivojlangan shakliga yaqin, lekin musiqiy fikrlarning bayoni bejirim ixchamligi bilan ajralib turadi. Boshlang'ich jumla kuy asosini ifodalaydi. Shu asos orqali keyingi ohang rivojlanishlari paydo bo'ladi.

"Karvon" musiqasi – boshlanishi nozik, avj qismi esa – hayajonli ohanlarga boy. Asarda milliy musiqa va Yevropa musiqasi madaniyatining ta'siri seziladi. Lad ohangdorligi va vazn (usul) doirasi (sekundali melodik yurishlar, bosqichma-bosqich melodik harakatlarning yurishi, avjning joylashuvi, sinkopali usullar kelishi) jihatdan asar o'zbek musiqasiga xosdir. Yevropa musiqasi pyesaning garmonik rivojlanish mantig'iga, uch qismli shaklning ishlatilishi, fikrning teran bayon etilishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Asar o'zining ohang nafisligi, usul tuzilmalarining nozikligi, lirik xarakterga ega ekanligi bilan kompozitorning boshqa asarlari singari o'zbek musiqasida ajralib turadi.

R.Abdullayev o'zining ko'p serqirra ijodi, estetik qarashlari, ijrochilik mahoratining yuksakligi va yorqin asarlari bilan zamonaviy o'zbek musiqasida yuqori mezonlarning tasdiqlanishiga va biz yoshlarga Vatanga bo'lgan muhabbatni, ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev R. - Fortepiano uchun asarlar to'plami.
2. Akbarov I. - Musiqa lug'ati.
3. maqomfund.uz
4. uz.m.wikipedia.org
5. Jabborov A.H. - O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.